

MADANIY KOD TUSHUNCHASINING QISQA TADQIQI

Nurullayeva Dilnoza Arzikul qizi

ToshDO'TAU doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17892840>

Annotatsiya

Ushbu tezis tilshunoslik va bir qator boshqa fanlarda qo'llaniladigan umumiy tushuncha "kod" haqida. Maqolada kod va madaniy kod tushunchalariga izoh berilib, paydo bo'lishi va qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, madaniy kodlarning verballashuv yo'llari va misollari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, kod, madaniy kod.

КРАТКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОНЯТИИ КУЛЬТУРНОГО КОДА

Аннотация

Данная диссертация посвящена общему понятию «код», используемому в лингвистике и ряде других дисциплин. В статье разъясняются понятия кода и культурного кода, предоставляется информация об их возникновении и использовании. Также приводятся способы и примеры вербализации культурных кодов.

Ключевые слова: лингвистика, культурология, лингвокультурология, код, культурный код.

A BRIEF STUDY OF THE NOTION OF CULTURAL CODE

Abstract

This thesis is devoted to the notion of "code" which is used in linguistics and a number of other disciplines. The article explains the notions of code and cultural code, providing information on their origins and uses. It also provides ways and examples of the verbalization of cultural codes.

Key words: linguistics, cultural studies, linguacultural studies, code, cultural code.

Insoniyat borki u muloqatga muhtoj. Muloqot ongda paydo bo'luvchi fikrlarni nutqqa olib kiruvchi vositadir. Muloqot turlari verbal, nonverbal, paralingval; rasmiy, norasmiy va hakazo bo'lishi mumkin. Lekin har qanday muloqot turini boshqaruvchi qoidalar bor. Bu qoidalar ba'zi faktorlarga asoslanadi va insonlar tomonidan ongsiz ravishda boshqariladi. Muloqotga shunday ta'sir etuvchi faktorlardan biri bu madaniyat faktoridir.

Har bir madaniyat o'z tiliga ega. Turli madaniyat vakillari o'z tilida ma'noni yetkazib berish jarayonida turli xil qoida va kodlardan foydalanadi. O'z navbatida ushbu qoida va kodlar turli kontekstlarda turlicha namoyon bo'ladi. Bir guruhga mansub insonlar asosan bir xil tildan yoki til dialektlaridan foydalanadi. Zamon va makon o'zgarishi bilan ushbu tillardagi ba'zi xususiyatlar o'zgarishi mumkin.

Til shunchalik murakkab fenomen bo'lib uning inson hayoliga kelishi mumkin bo'lgan qirralari ko'pdir. Tilning ushbu xususiyati uni o'rganishga bo'lgan yondashuvlarning ko'pligini asoslaydi. XX asr oxiri va XXI asr boshida tilni o'rganishga qaratilgan bir qator yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ular ichida diskursiv yo'nalish, kognitiv yo'nalish, konseptual yo'nalish, freymlarga asoslangan yo'nalish, qadriyatlarga asoslangan yo'nalishlar va hakazolar ham bor. Ushbu yo'nalishlar tilni o'rganishda umumiy xususiyat uyg'unligiga ega va bu kodlardir.

Kod – bu universal tushuncha bo‘lib, uning universalligi ushbu tushunchaning bir qator fanlarda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Kod tushunchasi axborot vositalari texnologiyasi, matematika va biologiyada, informatika, informatsiya sohaslarida paydo bo‘lgan. Keyinchalik ushbu tushuncha semiotika sohasidan tilshunoslikka kirib kelgan.

Ma‘lum belgi va qoidalar orqali ma‘lumot uzatilishi, qayta ishlanishi va saqlanishi mumkin. Ushbu jarayon kodlardan tashkil topadi. Kodlar sodda va murakkab bo‘lishi mumkin. Sodda kodlarga raqamli kodlarni kiritsak bo‘ladi. Murakkab kodlarga til misol bo‘la oladi.

Antroposentrik paradigmaning ta‘sirida bugungi kunda tilshunoslikdagi tadqiqotlar boshqa sohalar bilan uzviy aloqa bilan o‘rganilmoqda. Buning natijasida tilning faktlariga chuqur yondashuvga asoslangan holda tilni psixologiya, etnografiya, tarix va madaniyat sohalari bilan uyg‘un o‘rganish mumkin. Shunday o‘rganishlar natijasida paydo bo‘lgan tilshunoslikning mustaqil sohaslaridan biri bu – lingvokulturologiyadir. Lingvokulturologiya til prizmasi orqali xalqlarning madaniy dunyosiga nigoh soladi.

Ushbu sohani o‘rganuvchi tadqiqotchilarni lingvokulturologlar deb atashadi. Lingvokulturologlar hozirgacha bir qator lingvomadaniyat sohasiga oid bo‘lgan mavzularni o‘rganib kelishmoqda. Tilning xususiyatlarini o‘rganishning zamonaviy yondashuvida lingvokulturologlar alohida chuqur xususiyatga ega bo‘lgan madaniy maydonni topishdi va bu maydon – madaniy kod deb ataladi.

Madaniy kod – bu har bir madaniyatga xos ijtimoiy amaliyotlar, qadriyatlar majmui, me‘yoriy va baholash mezonlari tizimi bo‘lib, ular orqali odamlar dunyoni til yordamida idrok etadilar. Bu ma‘lum madaniy ma‘no va qadriyatlarni ifodalovchi voqeliklar (realiyalar) yig‘indisidir (Маслова, В. А., Пименова М. В. 2016:180).

Demak, madaniy kod lingvokulturologiya faniga tegishli tushuncha bo‘lib, u yoki bu madaniyatni tushunishning kalitidir.

Rus olimi V.Karasik “kod” deganda, til xosilalarini (tillar, hududiy va ijtimoiy dialektlar), ya‘ni muayyan kommunikativ akt qatnashchilari foydalanadigan til variantlarini tushunadi.

Biz olimning fikriga qo‘shilamiz, va muayyan til hudulari muayyan bir realiyalar nomlarini o‘zlari tegishli bo‘lgan hududdagina ishlatadigan kodlar tizimi orqali verballashtiradi. Misol uchun, O‘zbekistonning Xorazm hududida ayol-qizlarga nisbatan “dugona” degan nom “chiqon” so‘zi orqali ifodalanadi. Ushbu so‘z Xorazm viloyatidagina ishlatiladigan madaniy kod. Chunki, O‘zbekistonning boshqa hududlarida ushbu so‘z umuman ishlatilmaydi va ishlatilgan taqdirda ham aynan Xorazm hududi bilan aloqasi bo‘lgan, kelib chiqishi Xorazm viloyatidan bo‘lgan insonlar tomonidan qo‘llaniladi. Agarda bu so‘zga boshqa viloyat vakillari muloqot jarayonida duch kelsa, muloqot mazmuni tushunarsizlik kasb etib ba‘zi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

“Jo‘rop” so‘zi ham huddi shunday madaniy kod bo‘lib kelishi mumkin. Ushbu so‘z asosan Buxoro viloyatida ishlatilib, O‘zbekistonning boshqa hududlari madaniyatida “paypoq” nomi bilan ataladi. Qiziqarli tarafi shundaki, qardosh turk xalqi ham “paypoq” predmetini “jo‘roq” so‘ziga fonetik tarafdin ozgina farqli “chorap” (o‘qilishi [chorap]) so‘zi bilan nomlaydi.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda, madaniy kodlar faqatgina ba‘zi so‘zlar orqali namoyon bo‘ladi degan fikrga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. Madaniy kodlar muayyan muloqot vakillari tomonidan qo‘llaniluvchi barcha til vositalarini qamrab oladi. Shuningdek, madaniy kodlar mikro va makro matn holatida ham verballashishi mumkin.

Xulosa sifatida, kod tushunchasi ko'plab sohalar uchun umumiy tushuncha bo'lib, sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Uning sodda variantlariga informatika sohasida raqamlar misol bo'ladi. Ammo til murakkab koddir. Tilni tushunish, uni anglash, saqlash va qo'llash uchun shu tilning so'zlarinigina emas, balki bu so'zlar kelib chiqqan madaniyatida to'g'ri ma'nosini qo'llay olish kerak. Bu ayniqsa muayyan hududlar kesimida yaqqol bilinadi. Biz bunday holatni yuzaga keluvchi tushunchani madaniy kod den ataymiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Маслова, В. А. Культурные коды как путь описания взаимодействия языка и культуры / В. А. Маслова // Коммуникативное пространство. Информационное пространство. Культурное пространство. Коммуникативное пространство Беларуси : материалы Междунар. науч. конф., Минск, 22-23 декабря 2020 г. – Минск : МГЛУ, 2021. – С. 101–104.
2. Маслова, В. А., Пименова М. В. Коды лингвокультуры. – М.: Флинта, Наука, 2016, - 180 с.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 ст.
4. D.K. Baxronova Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanish. – Toshkent: "Turon-iqbol" nashriyoti, 2021, - 51-59 betlar.